

INSON RUHIYATIDAGI HOHISH VA MAJBURIYATLAR O’RTASIDAGI KURASH

Andijon davlat pedagogika institute
Pedagogika fakulteti psixologiya yo’nalishi talabasi
Abdug’ofurova Gulsanam Ilhomjon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19408458>

Annotatsiya: Ushbu maqolada insoniyatning paydo bo’lishidan to bugungi kungacha bo’lgan ehtiyojlarining o’zgarishi va ularning atrof-muhitga ta’siri falsafiy-psixologik nuqtai nazardan tadqiq etiladi. Quyida biologik turlarning qirilib ketishi va bunga inson omilining ta’sirini tahlil qiladi. Maqolaning asosiy qismi A. Maslouning ehtiyojlar piramidasi va Z.Freydning shaxsiyat strukturasi o’rtasidagi bog’liqlikka bag’ishlangan. Unda "Nafs" (ID) tushunchasining insonni harakatga keltiruvchi kuchi, "Menlik" (Ego) ning boshqaruvchilik roli va jamiyat qonun-qoidalari (Super-Ego) ning shaxs shakllanishidagi ahamiyati qiyosiy yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatdagi ma’naviy illatlar — qimor va pornografiya kabi muammolar misolida, inson o’z nafsini ongli ravishda jilovlashi zarurligi ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so’zlar: Inson omili, ehtiyojlar piramidasi, nafs(ID), ego, super-ego, isrofgarchilik, ekologik inqiroz, psixologik muvozanat, jamiyat normalari.

Inson tug’ilibdiki biror narsaga ehtiyoj sezadi. O’sish va ulg’ayish tufayli ehtiyojlar ma’lum miqdorda o’zgaradi va ko’payadi. Insoniyat dastlab faqat ehtiyojigagina yetadigon resurs ishlatkan bo’lsa, bu holat endi tubdan o’zgaradi ya’ni ehtiyojlaridan ham ko’ra ko’proq resurslar ishlata boshladi. Bu nafaqat XXI asr odamlarining oqilona bo’lmagan ishi, balki antik davr odamlarining ham shu kabi isrofgarchiligi mavjud. Bunga yaqqol misol bizning davrimizgacha yetib kelmagan, lekin dastlab yashab va qirilib ketgan hayvonlar kiradi. Misol uchun Sterellov dengiz sigiri, Tasmaniya Yo’lbarsi, G’arbiy qora karkidon kabi hayvonlar yo’q bo’lib ketishiga qaysidir ma’noda tabiatning ham o’z hissasi mavjud, ya’niki evolyutsiya jarayonida ma’lum turlar paydo bo’ladi, muhitga moslasha olmaganlari esa qirilib ketadi, lekin bu jarayon ancha sekin sodir bo’ladi. Lekin eng katta omil insoniyatnikidir. Inson omili eng qudratli, imkoniyatlari ko’p bo’lgan omil hamdir. Agar inson bu imkoniyatidan to’g’ri foydalansa hatolar ham kam bo’ladi. Shu kabi inson ehtiyojlarini, hohishlari va boshqacha qilib aytganda "nafs"ini, ichki mayllarni Zigmund Freyd o’rgangan. U shaxsiyat strukturasi ID, Ego, Superego qismlariga bo’ldi. Bu atamalar bizning hohishlarimiz va qilishlarimiz kerak bo’lgan jamiyat normalari bilan bog’liqdir. ID - bu qisqacha aytganda bizni ehtiyojlarimiz va hohishlarimizning yig’indisidir. Ya’ni bu hohishlardi A.Maslouning " Ehtiyojlari piramida"si asarida keltirilgan. Unda farqlar hamda o’xshash tomonlar mavjud. " Ehtiyojlar piramidasi" 5 ta qismga bo’lingan va pastki va asosiy qismi " Fiziologik ehtiyojlar"ga ajratilgan. Zigmund Freyd esa bu tushuncha ya’ni barcha fiziologik ehtiyojlarni " Id" tushunchasiga jamladi. Lekin bu ikki nazariya tubdan farq qilsada o’xshash tomonlari mavjud. Masalan : Ikkala nazariya ham insonning biologik ehtiyojlarini (ochlik, charchoq, jinsiy mayl) harakatlantiruvchi kuch deb tan olinadi. Bu ikkala nazariya ham inson ma’lum bir ehtiyoj yoki " yetishmovchilik" tomonidan boshqariladi deb takidlaydi. Ikkalasida ham ehtiyoj qondirilmasa inson ichki zo’riqish yoki diskomfort his qiladi. Bu nazariyalarni o’xshashlik tomoni bo’lgani bilan farqi juda katta . Maslau nazariyasida bu ehtiyojlardi qondirib borish natijasida yuksaklikka, insoniylikka qarab rivojlanadi. Freyd nazariyasida esa bu hohishlardi meyoridan ortiq qondirish va jilovlamalik esa hayvoniylikka yo’naltiruvchi kuch sifatida tasvirlaydi. U inson ehtiyojlari ongsiz ravishda sodir bo’ladigon, boshqarilmasa jilovlash qiyinlashadi degan tushunchani yoritgan. Lekin "Id" bu inson harakatga keltiruvchi energiya ekanligini takidlangan.

U Id tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan. "ID "bu ot, " Ego" esa chavandoz. Id qancha harakat qilgani bilan chavandoz boshqarishdi bilsa bu muammo emas. " Id" harakatga keltiruvchi mexanizm faqat uni to‘g‘ri yo‘naltirish va nazorat ustida ushlab turilsa, u shaxsni manziliga behato olib boradi. Va shu joyida " Ego nima ? " degan savol tug‘iladi. Bu tabiiy holat. Ego yuqorida tushunganiz kabi "Id" ni boshqaruvchi chavandoz. Ho‘sh " Ego", " Id" ni boshqarar ekan, qanday qilib Id bu to‘g‘ri to‘g‘ri boshqarar ekan, qanday qilib Id ni to‘g‘ri yo‘naltirilsa bo‘ladi ? Bu savolga javob topishdan oldin " Ego" tushunchasiga to‘htalsak. Ego bu ko‘prik Id va Super Ego ni talabalariga amal qilgan holda ikki tomonni ham talabini qondiruvchi vosita hisoblanadi. Ego bizning ongli qarorlarimiz yig‘indisidir. Ego bu menimiz, Id nafsimiz yoki ichimizni to‘ldirib,harakatga keltiradigan vosita bo‘lsa, Ego esa qobiqdir, Id ni boshqarib turadi, shu bilan birga Id dan energiya oladi.

Super Ego- bu o‘z nomi bilan super ego, boshqaruv. Ya’ni bu jamiyat. Bizning atrofimizni o‘rab turgan kishilar jamoasi, biz jamiyat standartlariga moslashishimiz. Omma oldi,jamiyatda odob,saqlashimiz, jamiyat qonunlariga bo‘ysunishimiz tushuniladi. Super ego qoidalariga bo‘y sunish Id uchun juda qiyin, deyarli imkonsizdir. Shu sababli Ego bu qoidalarni Id talablariga moslashtirgan holda Id ni bo‘ysundiradi. Shu sababli ham jamiyat va Id o‘rtasida deyarli nizo paydo bo‘lmaydi. Ego moslashtiradi, transformatsiya qilib bizga moslab beradi. Shu bilan birga ko‘p holatlarda Ego bular o‘rtasida qolib ketadi va zo‘riqish,charchoq, o‘z o‘zidan qoniqmaslik hissi paydo bo‘ladi.

Freydni bir mashhur gapi bor." Insonni o‘zi Super Ego kasal qiladi, shu bilan birga tartibga ham soladi ". Freyd bu gapi bilan jamiyat talablari Id talabalariga qarshi chiqadi va shu sababli ham insonni kasal qiladi lekin aynan shu talablar hayotimizni tartibga keltirib turadi. Bu gapi bilan Freyd jamiyatni qoralashdi maqsad qilmagan aksincha o‘zimizni isloh qilishimiz kerak ekanligi kerakligini g‘oyasini ilgari surgan. Id hohishlarini hammasini qondirishiniz,nafaqat ID balki har qanday hohishlarimizni qondirishimiz majburiy emas, ayrim zarur bo‘lmagan talablar qondirilmasa ham bo‘laveradi. Id imizni boshqarishimiz kerak, ya’ni inson qanday ish bilan shug‘ullansa yoki ko‘rsa u o‘sha ishda rivojlanadi. Bundan kelib chiqadiki Super ego talablari og‘irlik qilsa, Id ni talablariga moslagan holda talablarga bu sundirishimiz kerak. Misol orqali tushuntirsam: Oddiy bir hozirda yoshlar o‘rtasida keng tarqalgan hatolar. Ya’ni hozirda avj olib rivojlanayotgan har xilgi pornografik va qimor o‘yinlar misol keltirish mumkin. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra bu kabi o‘yinlar va videolar qurbonlari asosan o‘smirlar va yoshlar o‘rtasida avj olib borayapti. Jamiyat,Super Ego bunday o‘yinlar va videolarni taqiqlaydi, lekin Id bunga qarshi chiqadi. O‘z egasi chavandozi to‘laqonli boshqara olishi natijasida u bo‘y sundiriladi. Biz Idni otga, Egoni chavandoz timsolida ko‘rsak Super Ego poyga maydoni, ya’ni bu super ego maydonida har kim o‘z ID va Egosi orqali qatnashadi. IDni bo‘y sundirib, kuchidan oqilona foydalanishdi bilgan chavandoz Super ego poygasida yutadi.

Ekologik hushyorlik: Insoniyat o‘z ehtiyojlarini qondirishda "iste’molchi" kayfiyatidan voz kechib, tabiat bilan uyg‘unlikda yashashni o‘rganishi shart. Aks holda, tarixiy isrofgarchiliklar takrorlanib, ekologik muvozanat butunlay izdan chiqadi.

Ruhiy muvozanat formulasi: Insonning haqiqiy baxti — bu uning ID (Nafs) xohishlari va Super-Ego (Axloq) talablari o‘rtasida Ego (Menlik) orqali sog‘lom muvozanat o‘rnatishidir.

Nafsnii jilovlash — yuksalish asosi: Maslou va Freyd qarashlari shuni tasdiqlaydiki, ehtiyojlarni shunchaki qondirish emas, balki ularni tartibga solish insonni yuksaklikka yetaklaydi. Bugungi kunda yoshlar orasida uchrayotgan ma’naviy bo‘shliqlarni faqatgina kuchli "Ego" va sog‘lom jamiyat normalari orqali bartaraf etish mumkin. Inson o‘zining hayvoniy instinktlaridan (Id) ustun kelib, ongli ravishda (Ego) ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarni tanlagandagina, u haqiqiy "komil inson" darajasiga ko‘tariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Psixoanaliz asoslari.Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma.- T.:O‘zbekiston nashriyoti,2004 - 144 bet.
2. Zigmund Freyd. Psixoanalizga kirish/ “ Yangi asr avlodi ” nashriyoti 2021-yil.
3. Sohobova,O. (2024).Ta’lim jarayonida tarbiyaning pedagogik -psixalogik xususiyatlari. Universal xalqaro ilmiy jurnal,1(4), 731-732.
4. Tolibjonova,O.V. (2025). Oila psixalogiyasi :xususiyatlari,rivojlanishi va oila a’zolar o’rtasidagi munosabatlar. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o’rni va rivojlanish omillari, 18(1),392-397
5. Tolibjonova,O.V.(2025). Yoshlik davri psixalogiyasi.Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o’rni va rivojlanish omillari, 18(1), 388-391
6. Abdug’ofurova,G.I.(2026). Tabiiy va Jinsiy tanlanishning shaxs psixikasi rivojlanishiga ta’siri. Tadqiqotlar, 78(2) 159-162.